



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3 uy

29 iyun 2026 yil.

05/12-7882-son

Bojxona brokerlari
uyushmasi

Bojxona brokerlari uyushmasi va bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda ko‘tarilgan masalalarni hal etil bo‘yicha Bojxona qo‘mitasining 2026-yil 21-iyundagi P-12/26-087-sonli Chora-tadbirlar rejasining 8-bandiga ko‘ra, Bojxona brokerlari uyushmasi raisi o‘rinbosari E.Xalilov tomonidan tovarlarni ko‘zdan kechirishdan avval “bojxona ombori” bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish talabini bekor qilish yuzasidan taklif berilgan.

Uchrashuv davomida qayd etilgan masalalar yuzasidan quyidagilar ma‘lum qilinadi:

Bojxona kodeksning 275-moddasi talablariga ko‘ra, deklarant bojxona deklaratsiyasi va bojxona maqsadlari uchun zarur boshqa hujjatlar berilguniga qadar tovarlarni bojxona nazorati ostida ko‘zdan kechirish hamda o‘lchash, ularning namunalari va nusxalarini olish huquqiga ega.

Tovarlarni deklarant tomonidan ko‘zdan kechirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabrdagi 700-son qarori bilan belgilangan bo‘lib, mazkur qarorning 156-bandiga muvofiq, deklarant tomonidan tovarlar faqat TIF bojxona postlarida **bojxona ombori bojxona rejimida, bojxona organi tomonidan belgilangan bojxona ombori hududida ko‘zdan kechiriladi.**

Ma‘lumot o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasi “Kyoto” konvensiyasining (“Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya) qayta ko‘rib chiqilgan tahririga (Revised Kyoto Convention) 2021-yil 16-fevralda qo‘shilgan bo‘lib, unga ko‘ra tovarlar deklaratsiyasini taqdim etishdan oldin deklarantga **bojxona tomonidan belgilangan shartlar asosida** tovarlarni ko‘zdan kechirish va namuna olish huquqi berilishi belgilangan.

Ta‘kidlash joizki, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan bildirgan takliflarni inobatga olgan holda bugungi kunda Bojxona qo‘mitasi

tomonidan Bojxona kodeksining 275-moddasiga hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga **o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligini** ma'lum qilamiz hamda bojxona qonunchiligi yuzasidan berilgan takliflar borasida hamkorlik uchun minnatdorchilik bildiramiz.

**Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini
tashkil etish boshqarmasi boshlig'i**



E.Salixov